



DIQQAT! YANGI TANLOV!

«O'zbekiston pochta» OAJ, O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, O'zbekiston badiiy akademiyasi va O'zbekiston qushlarni himoya qilish jamiyati bilan birgalikda 2011-yil 15-yanvardan 15-martgacha «Qushlar bizning do'stlarimiz» mavzusida bolalar ijodiy rasmlari respublika tanlovini o'tkazmoqda.

Tanlov «Qushlar bizning do'stlarimiz» nomli maxsus pochta markalarini chop etish uchun eng yaxshi rasmlarni tanlab olish maqsadida o'tkazilyapti.

Tanlovda 8 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar ishtirok etishlari mumkin.

Ijodiy ishlar 2011-yil 20-martgacha qabul qilinadi.

Tanlovga A4 (29x210 mm) shaklidagi oq vatman qog'ozda ishlangan ishlar (rasmlar) qabul qilinadi. Rasmlar guash yoki akvarelda bajarilgan bo'lishi lozim. Lekin yorqin fluoressenliya bo'yoqlaridan foydalanmaslik kerak.

Rasmlar orqasiga ism-sharifingiz tug'ilgan yilingiz, oyi, sanasi, o'qish joyingiz, to'liq pochta manzilingiz va telefon raqamingizni yozishni unutmang.

Ijodiy ishlarni quyidagi manzilga jo'nating: Toshkent shahri, 100011, A.Navoiy ko'chasi, 28-«V» uy, «O'zbekiston pochta», OAJ «O'zbekiston markasi» ishlab chiqarish bo'limi, «Tanlovga» deb ko'rsatilishi shart.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun telefon: 233-70-33. Pochta orqali jo'natilgan ijodiy ishlar sanasi kalendar tamg'asi bo'yicha aniqlanadi.



SO'Z TANITADIGAN KITOB

3-bel

Bugun ham xat oldim. Juda ko'p.
Barchangizdan minnatdorman, aziz
muollislarim!

MENGA XAT KELDI

– Ular da nimalar haqida yo-
zishgan?

– Muxbir aka, Qashqadaryo viloyati-
ning Qarshi tumanidagi 24-maktab-
ning oliy toifali ona tili va adabiyot
o'qituvchisi, nafaqaxo'r Xudoyberdi
ota Nazarovning xati diqqatimni tortdi.
U kishi o'z xatlarida har yili tuman
maktablarida Alisher Navoiy va Bobur
Mirzo bobolarimizning tavallud kunlari
o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan
keng nishonlanishini, shu kunlarda
tumandagi 60 ta, xususan, 12-, 19-,
23-, 24-maktablarda bu an'ana keng
miqyosda olib borilayotganini faxr bilan
tilga olibdilar.

Buning uchun otaxonga rahmat
aytami. Bizga turli tadbirlar haqida tez-
tez yozib tursalar, xursand bo'lardik.
Toshkent shahar, Sobir Rahimov
tumanidagi 185-maktabning 4-sinf
o'quvchisi Nilufar Salimovaning
«Qish» she'ri menga yoqdi.

– Qani, eshitaylik-chi!

*Qishda yog'ar oppoq qor,
Par emas, bu yumshoq.
To'rt fasladan chiroyli,
Qara, qanday beg'ubor.*

Hammayoqni qoplab qor,
Oynalar taq muzlaydi.
Ayoz bobo uzoqdan,
Bizga chana izlaydi.

– Harqalay yomon emas.

– Farg'ona viloyati, Rishton tuma-
nidagi 33-maktabdan Shohista To'xta-
sinova bir nechta she'r va chizgan surat-
larini yuboribdi. Mana, ko'ring, muxbir
aka, nima deysiz?

– Shohistaxonning niyati yaxshi.
She'rlarini yana qayta ko'rib chiqsin.
Rasm chizgani ham a'lo. Ammo milliy
mazmunda, ertaklarimiz asosida rasm
chizib yuborsa, yaxshi bo'lardi...

– Mana bu xat Jizzax shahar, 1-o'rta
maktabning 7-sinf o'quvchisi Zilola O'ro-
lovadan kelibdi. «Posbonlar»ga degan
she'r ekan. O'qib ko'ring.

– Zilola ko'proq kitob o'qib, she'r
yodlab, bilimni oshirsin. Undan jiddiy
she'rlar kutib qolamiz. Shu maktab
o'quvchisi Mastuna Qo'shboqovaga
ham shu fikrlarimizni bildiramiz.

– Qashqadaryo viloyati, Qarshi
tumanidagi 25-maktab o'quvchisi Asror
Ro'ziyev yuborgan boshqotirmalardan
birini ochib ko'rsak.

– Bajon-u dil!

– Bitta gugurt donasini o'zgartirsaq,
quyidagilardan to'g'ri javob chiqadi.

$$X + II = XX$$

$$X - V = IX$$

$$VIII - IX = IV$$

– Xorazm viloyati, Hazorasp
tumani, Beshta qishlog'idagi 15-
maktab o'quvchisi Mehrnoz Erkin-
boyeva yuborgan boshqotirma ham
diqqatimni tortdi. Rasmini ham
yuboribdi. Undan foydalanamiz,
albatta!

– Yana xat yozib turishingni istab
qolaman. Shuningdek, Surxondaryo
viloyati, Angor tumanidagi 14-maktab
o'quvchisi Iroda Fayzullayeva, Shahri-
sabz tumani, Sa'diy ko'chasi, 78-uydan
Hilola Valiyeva, Zomin tumanidagi 51-
maktabdan Farog'at Musandiqova ham
maktub yo'llashgan. Hammaga katta
rahmat. Yana xatlaringizni kutib qolamiz!

«Tong yulduzi»

DADAM BILAN FAXRLANAMAN

Mening dadam fermer. Ular paxtachilik,
g'allachilikning sir-asrorlarini juda yaxshi
biladilar. «Shuncha bilimni qanday egallagan
ekanlar-a?» deb o'ylab qolaman.

«Yer bilan tillashsang, dillashsangina ko'zlagan
natijaga erishasan. Yerni boqsang, yer ham seni boqadi»,
deydilar. Har kuni erta tongdan dalaga oshiqadilar.



Boshqalar kelmasidan hammayoqni aylanib chiqadilar.
Qayerga suv, qayerga o'g'it kerak, darov bilib oladilar.
Keyin ko'ngillari xotirjam bo'lib hammaga ish
taqsimlab beradilar. Ularga juda havasim keladi.

Xalqimiz dasturxonining to'kin-sochin bo'lishiga
dadamning ham ozmi-ko'pmi, hissalar borligidan
faxrlanaman. Ularga munosib qiz bo'lishga harakat
qilaman.

Oyshaxon RO'ZMETOVA,
Urganch shahridagi 5-maktabning
7-«D» sinf o'quvchisi

XORIJDAN QAYTGAN TENGDOSHINGIZ

Xorijga borib kelgan istagan
tengdoshingizdan so'rang: xo'sh,
qanaqa? U nima deb javob qiladi
deng: «Ota-onamni, oilamdagilarni, suv
sepib, sidirilgan ko'chamizni, xushbo'y
oshimizni, o'zimizning asal mevalarni,
shirin-shakar qovunlarni, qishloq
ko'chalarini, zilol suvimizni sog'indim»,
deydi. Darvoqe, inson uchun Vatan aziz,
uning har bitta zarrasi aziz!

NON DARAXTI BORMI?!

Bor. Buni
ko'pchilik
yaxshi
biladi. U
Afrikada,
tropik mamlakatlarda o'sadi. Mevasi
shoxlarida emas, yo'g'on tanasida
yetiladi. Qovun shaklida bo'lib, og'irligi
15 kilogrammni tashkil etadi. Yerli aholi
hanuzgacha undan non tayyorlaydi.
Yurtimizda bu o'simlik o'sishi mum-
kinmi, degan savolga «ha» deb javob
berish mumkin. Bizda nimalar o'smaydi!



QOSHIG'INI HAM YESA BO'LADI

Meksikada yashov-
chi aholi tortilyas degan
o'simlikning
bir bo'lagini
sindirib olib,
qoshig' o'rnida
ishlatishadi.
Nonday mazali
bo'lgan
«qoshig'ning»
o'zini ham iste'mol qilish mumkin.

N.ABDULLAYEVA tayyorladi



CHIN DO'ST

(Hikoya)

Hammasi kutilmaganda
yuz berdi. Muallima Abdul-
qosimni doskaga chaqirdi.

– Xo'sh, Arziyev, o'tgan
darsimiz bo'yicha gapirib bering-
chi, dedi u sinf jurnaliga allanimalaridir qayd etarkan.

Abdulqosim sarosimalanib qoldi. Atigi ikki kun avval
muallima uni doskaga chaqirib savol-javob qilgan,
Abdulqosim arang «uch»ga ilingan, endi bir haftacha
menga tegmaydi degan xayol bilan yurgan edi.

U old partada o'tirgan qadrdon do'sti Lazizga iltijoli
ko'z tashladi. Imo-ishora bilan «Qoidani shipshitib
yubor», dedi. Lekin Laziz bosh chayqab, teskari qaradi.

– Arziyev, nega darsga tayyor emassiz? – deb so'radi
muallima norizo chimirilib.

Abdulqosim jo'yali bahona topolmay, arang
g'udrandi.

– Kasal edim...

– O'tiring, Arziyev, bahoingiz «2»!

Abdulqosim uyatdan lov-lov yonib o'rmiga qaytdi.



Sinfning u yer-bu yeridan piq-piq kulgi tovushlari
eshitildi.

Chin do'stim deb yurgan sinfdoshining qilg'idan
ko'ngli xira tortdi. Boshqa darslarga ham qatnashmay,
uyiga ravona bo'ldi.

Xonaga onasi Naima opa sekin kirib kelganda,
Abdulqosim ko'rpacha ustida g'ujanak yotardi.

– Senga nima bo'ldi, o'g'lim? – deb so'radi u
muloyim bir tovushda.

Abdulqosim bo'lgan voqeani gapirib berdi.

Onasi o'g'lining yelkalarini silab: – Lazizbek senga
chin do'st ekan, – dedi.

Abdulqosim onasiga yalt etib qaradi.

– Nimalar deysiz, onajon?!

– Ha, bolam, Lazizbek senga chin do'stlik qilibdi.
Agar u o'sha bilmagan narsangni shipshib yuborganida,
sen shunga o'rganib qolarding. O'zing mustaqil dars
tayyorlamay, o'qib-o'rganmay, tayyorga ayyor yalqovga
aylanarding. Lazizbek sen bunday bola bo'lib
qolishingni istamagan...

Naima opa o'g'liga to'g'rilik, halollik haqida yana
ko'p narsalarni gapirib berdi.

Kechqurun darvoza taqillab qoldi. Naima opa
birozdan so'ng Lazizbek bilan birga kirdi. Do'stining
qo'lida allaqanday kitob. Abdulqosim unga peshvoz
yurdi.

– Meni kechir, do'stim! – deb yubordi ular bab-
baravariga.

Laziz qo'lidagi kitobni uzatdi:

– Bu juda yaxshi ko'flanma, bundan keyin ikkalaniz
shu bo'yicha dars tayyorlaymiz, tez orada fizika bo'yicha
eng a'lochi bo'lasan.

Naima opa bolalarga mehr bilan qarab turardi...

Sarvinov MAHMARAHIMOVA,
G'uzor tumanidagi 22-maktabning
7-sinf o'quvchisi

7-12 yoshlilar sahifasi

Bu bolakaylar Alifbeni tugatib, O'qish kitobini o'g'illariga olganlariga hali hech qancha vaqt bo'lgani yo'q. Shunga qaramasdan, burro-burro she'r yodlashlari, kitob o'qishlari, topishmog'-u tez aytishlarni maromiga yetkazishlarini ko'rib, rosti, sevinib ketdik. O'quvchilarning quvnoq davrasiga xayrixoh bo'lib, ularning «Atrofimizdagi olam» va «Odobnoma» darslarini kuzatdik. Bugungi «KICKINTOY»-yimizning mehmonlari Yunusobod tumanidagi 288-maktabning 1-«A» sinf o'quvchilardir.

– Ustoz, qarang, mening kitobim eng chiroyli, – deya Nargiza qo'lidagi ozoda va yap-yangi kitobini ko'rsatib maqtandi.

– Meni kitoblarimni esa Prezidentimiz sovg'a qilgan, u hammanikidan zo'r, – papkasi bilan ko'rsatdi Akbarshox.

– Bizga ham sovg'a qilganlar, – chug'urlashdi bolakaylar bir-birlariga so'z bermay. Ustoz Feruza

– Qanday qilib, ustoz, nima qilsak, ular xursand bo'ladilar? – deya bir zum xomush tortishdi jajji bolajonlar.

– Odobli va namunali o'qishingiz-u yaxshi inson bo'lishingiz bilan-da, ishonamanki, bu sizning qo'lingizdan keladi.

Kichkintoylar «qo'limizdan keladi», deya yuzlarida tabassum bilan ustozni quchoqlab olishdi.

SO'Z TANITADIGAN KITOB



TABIATNING ZEB-U ZIYNATI

– Ustoz, qushlar baland uchadi-a, ular haqida kitob o'qidim. Aytaymi, qaldirg'ochlar 4000 metr balandga ko'tarila olisharkan, – zavq bilan o'qiganlarini shoshib-shoshib gapirdi Kamron.

– Unday emas, men bilan, ular 300 metrdan yuqori ucha olmaydilar, – ustozdan avval javob berishga shoshildi Rixsi.

– To'g'ri, ammo qushlarning qanchalik baland uchishlarini aniqlaydigan asbob kashf etilgandan so'ng bu taxmin noto'g'riligi isbotlandi. Chindan ham qaldirg'ochlar 4000, kaptarlar esa 1700 metr balandda uchishlari mumkin ekan. Kamron kitob o'qigani uchun yangi kashfiyotlardan xabardor bo'loldi.

– Ustoz, biz qushlarga in yasamoqchimiz, – deyishdi bolalar chug'irlashib.

– Juda yaxshi o'ylabsizlar, chunki ular tabiatning zeb-u ziynatlaridir, bu ziynatlar bizning do'stimiz, do'stlarni esa ehtiyot qilishimiz kerak.

Feruza SOYIBJON qizi

opa Ibragimova esa har bir bolaning gapini tasdiqlab, qo'shimcha qildi:

– Prezident bobomiz sizga so'zni taning, so'zni tanisangiz, kitobni bemalol o'qib va albatta, uqib olasiz, deya bu kitoblarni birga o'z mehrini, shirin so'zini sovg'a qildilar-da. Siz esa, aziz bolajonlar, bunga munosib javob qaytarishingiz shart.

TEST

1. Dunyodagi hamma suvni bir tomchiga yig'ilsa, u tomchining diametri necha kilometr bo'ladi?

- A) 1500 kilometr;
- V) 1400 kilometr;
- D) 1000 kilometr.

2. Dunyodagi hamma suv yer sharining barcha joyiga bir tekisda yoyilsa, u holda suv qatlamining qalinligi necha kilometr bo'ladi?

- A) 4 kilometr;
- B) 7 kilometr;
- D) 2 kilometr.

3. Bir gektar yerning bir metr qalinlikdagi tuprog'ida taxminan necha tonna fosfor elementi bo'ladi?

- A) 6 tonna;
- B) 3 tonna;
- D) 1 tonna.

4. Qayerda va qaysi yili surkab yondiriladigan xavfsiz gugurt ishlab chiqarila boshlagan?

- A) 1855-yili Shvetsiyada;
- B) 1805-yili Germaniyada;
- D) 1826-yili Angliyada.

5. Atmosferaning 100 kilometr balandligida necha foiz vodorod bo'ladi?

- A) 95 foiz;
- B) 100 foiz;
- D) 50 foiz.

6. Asal tarkibida taxminan necha xildagi moddalar bor?

- A) 10 ga yaqin;
- B) 5 ga yaqin;
- D) 7 ga yaqin.

Alisher ABDULLAJONOV tayyorladi



Ertalab otam bilan mashinada ketayotgan edim. U kishi nimalarnidir xirgoyi qilib borardilar. Bir payt jahl bilan tormoz bosdilar. Yo'ldagi kuchukchaga ko'zim tushdi.

Otam: – Tur, ket, – deb qo'llariga tosh oldilar. Men uni ko'tarib oldim.

Otam: – Men ishga kechikayman, – dedilar «Tezroq mashinaga chiq», degan ohangda.

Men javob qaytarmadim. Otam mashinaga o'tirib, jahl bilan haydab ketdilar.

Kuchukcha qo'llarimni yalab, dumini likillatar edi. O'ylanib qoldim: otam kuchukni yomon ko'radilar. Qayoqqa olib borsam ekan? Buvimnikiga olib borsam-chi?! Kuchukchani sumkamga soldim.

Buvinning uyilari yo'l yoqasida joylashgan. Eshikni taqillatdim.

Non yopayotgan ekanlar, kulib turgan yuzlaridagi ajinlari tandingning taftidan bo'lsa kerak, bo'rtib-bo'rtib ajralib turar edi. Hovliga kirib buvimga voqeani aytib berdim.

– Qani, kuchukchani ko'ray-chi! – dedilar. – Voy, muncha chiroyli ekan.

– Shu yerda qolsin! – deb iltijo bilan ko'zlariga boqdim.

Buvim o'ylab turib, «Mayli, qola qolsin, faqat u kir ekan», dedilar. Uni yuvintirdik. Zotdor, oqsariq rangli, quloqlari uzun, burunchasi qora ekan. Biz ayni tushlik vaqti kelgan ekanmiz, issiq tandirda kulchalar «qachon Murodjon kelar ekan», deb kutib turgan ekan. Mana, kulchalarim, men keldim, deb buvimni kuldirmoqchi



bo'ldim, lekin u kishi parvo ham qilmay nimanidir o'ylab turardilar.

– Ha, topdim, nomini Oqtoy qo'yamiz! – dedilar.

– Juda yaxshi, – deb qo'shildim.

Buvijonim bilan xayrlashdim-da, yo'lga otlandim.

Oyim uyda meni kutib yig'lab o'tirgan ekanlar. Otamdan ham gap eshitib oldim.

– Shu paytgacha qayerda eding? Nega ko'chada sang'ib yuribsan! – dedilar jahl bilan.

Indamay xonamga kirib ketdim.

Har dam olish kunlari yashirincha borib, Oqtoydin xabar olib turdim. Oqtoy bilan dalalarda yugurar, o'ynar edik. Oyim yashirincha buvimnikiga borayotganimni sezib qolib, har yakshanba qayerga serqatnov bo'lib qolding, deb qoldilar.

– Buvimnikiga, – dedim xavotir bilan. – Otasi, qarang. Buvisidan xabar oladigan mehribon

o'g'limiz bor. Biz oyimizdan xabar olish uchun vaqt ham ajrata olmaymiz.

Butun tanamni qo'rquv bosayotganday tuyuldi. –Yakshanba kuni hammamiz boramiz, oyisi, – dedilar otam.

– Voy! – deb yubordim hayajonlanib. Yakshanbada yo'lga otlandik.

Uyda qolmoqchi bo'lib, «Qornim og'riyapti, mazam yo'q», desam ham ko'nishmadi. Birga ketishga majbur bo'ldim. Buvimnikiga ham yetib keldik.

Mashinadan yugurib tushib: –Buvi, buvi, biz keldik, – deya eshikni taqillatdim. Buvim ham go'yo poylab turgandek shart eshikni ochdilar. Men hovliga otilib kirdim.

– Bu kuchuk qayerdan paydo bo'ldi? – dedim atayin.

– Kuchukchanimni, topib oldim, – dedilar buvim.

Otam: – Bu hov anavi kungi mashina ostiga kirib ketgan emasmi? – deb so'radilar.

– Qaysi? – dedim o'zimni bilmaganga solib.

Otam o'sha kungi voqeani aniq qilib qaytardilar va qo'shib qo'ydilar: – Yana qaytaraymi?

– Buvi, o'zingiz tushuntiring! – dedim-da, hovlidan chiqib darvoza oldiga borib o'tirdim. Buvim voqeani ularga tushuntira ketdilar. Biroz o'tgach, hammalari jim qolishdi. Men ham o'ylanib qolgan edim. Rosti, otamdan yana tanbeh eshitamanmi, degan o'yda cho'chib turardim. Birdan ortimdan otamning ovozlari eshitildi:

– Nima qildik, Murodboy, Oqtoyni olib ketamizmi?..

Dilshod ISAYEV, poytaxtimizdagi 301-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi

XAYIRLI YIL BOSHIDA

Aziz o'quvchilar, mana, yangi yilimizning ilk oyi ham occirlab boryapti. Barchamiz ezgu niyatlar, yangi-yangi rejalar bilan katta yo'lning boshida turibmiz. Bunday umidbaxsh kunlarda qilgan niyatlarimiz ijobati uchun esa yurtimizda barcha sharoitlar muhayyo. Mazkur yilimizning «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deya o'lon qilinishi yoshlarimiz uchun ham imkoniyatlar eshigini yanada kengroq ochib berdi. Ota-onalari, aka va opalariga havas qilib, tadbirkor bo'lish niyatida hozirdanoq izlanayotgan tengdoshlaringiz so'zlariga bir quloq tutaylik-a:

Zarina MUXTOROVA,
Ishitxon tumanidagi 1-
ixtisoslashgan davlat
umumta'lim maktabining
6-«B» sinf o'quvchisi:

«O'ZBEKISTONDA ISHLAB CHIQRILGAN»

Jajji qizaloqlik paytlarimda mahallamiz ayollari biznikiga tez-tez chiqib turishardi. Boisi, oyijonim ularga hamda farzandlariga chiroyli, bejirim ko'ylaklar tikib berardilar.

– Qo'lingiz gul-da, opajon, ko'ylagim biram chiroyli chiqibdi, asti qo'yaverasiz, – deya maqtab-maqtab kiyib ketishardi. Oyim esa ularning ortidan zavqlanib qarab qolardilar. Shunday kezlarda chevar zavqlanib juda havasim kelardi. O'zgalardan rahmat, samimiy minnatdorchilik so'zlarini eshitish qanday maroqli axir!..

Hozirda oyimning kattagina tikuv xonasi bor. Ishlari ko'paygandan-ko'paygan, parda tikishni ham yo'lga ko'rganlar. Men esa bu ishlarda ularga yaqin ko'makchiman.

«Yordaming menga foyda bo'lsa, o'rganing o'zingga». Oyijonim ko'p takrorlaydigan bu hikmatning nechog'li to'g'riligiga yoshim ulg'aygani sari amin bo'lib boryapman. Milliyligimiz bilan zamonaviylikni uyg'unlashtirib, yangi-yangi liboslar yaratuvchi dizayner bo'lmoqchiman. Oyijonimning tikuv xonalarini kengaytirib, tikuv sexi ochishni, ko'plab yoshlarni ish bilan ta'minlashni niyat qilyapman.

Kelgusida katta tadbirkor bo'lsam, seximizda tikilayotgan kiyim-kechaklar nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham xaridorigir bo'lib ketsa, ajabmas. O'shanda mahsulotlarimizda, albatta, «O'zbekistonda ishlab chiqarilgan» degan yozuv bo'ladi.

Sardor BOTIROV,
Toshkent viloyati,
Chirchiq shahri:

SO'VG'A SABAB

Har yili yangi yil men uchun qo'shaloq xursandchilik olib keladi: bayram shodiyonalariga tug'ilgan kunim ulanib ketadi. Shunga yarasha sovg'a-salomlar ham opa-singillarimnikidan ikki hissa ko'p bo'ladi...

Bu yilgi sovg'alarim orasida eng yoqqani bobojonim sovg'a qilgan qo'zichoq bo'ldi. Yumshoq o'yinchoqmi, deysizmi? Yo'q, haqiqiy qo'zichoq! U ham mening tug'ilgan kunimda dunyoga kelibdi. Ko'p qavatli uyda yashashimiz bois, «jonli sovg'a»mni uyga olib ketolmadim. Lekin har kuni maktabdan keyin, albatta, bobolarnikiga kirib, qo'zichog'im Olavoydan xabar olib ketaman. Rangi oq-qora bo'lgani uchun unga shunday laqab qo'ydim. Qishki ta'til kunlarimni ham bobolarnikida o'tkazdim.

Avvallari bobomning qo'y-u qo'zilar bilan ishim yo'q edi. Olavoyim tufayli jonivorlarga mehrim ortdi. Ularni parvarishlash sirlarini o'rganib boryapman. Bobomning aytishlaricha, Olavoyimning bolalari ham meniki bo'lar ekan. Shu tariqa, sovg'a sabab tadbirkorlik ishlarimni boshlab yubordim.



Feruza JALILOVA yozib oldi

4

2011
Tong yulduzi
31-yanvar

MA'NAVIYAT BEBAHO BOYLIK!

SINFDOSHLAR SIRI NIMADA?

Shohista Madina bilan sinfdosh, sirdosh dugona. Yaqinda ular tahsil oladigan 59-umumta'lim maktabida bu ikki dugona rosa shov-shuvga sabab bulishgandi. Nimaga, deysizmi?

Chunki Shohista husnixat bo'yicha 2-o'rinni egallagan bo'lsa, Madina rus tili fanidan o'tkazilgan tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritdi. Bu xushxabar sinfdoshlari uchun ham quvonchli voqeaga aylandi. Ayniqsa, Abdulaziz va Usmon sinfdosh qizlarga astoydil havas qilishgan ekan. Natijada, Usmon ona tili fanidan tuman bo'yicha o'tkazilgan olimpiadada 2-o'rinni, Abdulaziz esa xitoy tilidan o'tkazilgan olimpiadada 1-o'rinni egallashibdi.

Bitta sinfda shuncha xushxabar... Havas qilsa arziydi, shunday emasmi? Madinadan buning sirini so'raganimizda, u shunday deb javob berdi:



– Sinfdoshlarimiz bilan erishayotgan yutuqlarimizga, eng avvalo, ko'p o'qishimiz asosiy sabab bo'lmoqda. Biz maktabdagi o'quv fanlaridan tashqari, badiiy adabiyotlar o'qishni doimiy vazifamiz deb bilamiz. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarini muntazam kuzatib boramiz. Bolalar uchun nashr etiladigan gazeta va jurnallarga obuna bo'lib, sevimli nashrlarimizda o'z maqola va xabarlarimiz bilan qatnashib turamiz.

Madinaning so'zlarini eshitib, sinfdoshlarning siri unimsiz mutolaada ekanligini bilib oldik. Mutolaa bu ahil sinfni katta yutuqlar sari yetaklayotganiga barchangiz guvoh bo'ldingiz, to'g'rimi?

Aziz bolajonlar, sizning sinfingizda ham biz bilmagan biror sir bormi? Agar bo'lsa, bu haqda bizga yozib yuboring. Maktublaringizni kutib qolamiz.

GULYUZ opangiz

MADINANING

Tirishqoq, izlanuvchan bu tengdoshimiz ona tili, adabiyot, tarix, huquq, ingliz, arab tillariga qiziqadi.

«To'garaklar – yoshlar salohiyatini oshirish yo'llari», «O'zbekistonda kulolchilik ramzlari», «O'quvchining bo'sh vaqtini samarali tashkil etish» kabi ilmiy maqolalari nafaqat respublikada, balki chet ellarda ham tez-tez

bosilib turadi. Yaqinda Rossiyaning «Molodoy uchyoniy»

«MA'NAVIYAT

jurnali orqali «Buxorodagi zardo'zlik tarixi» nomli maqolasi rossiyalik o'quvchilar e'tiboriga havola etildi.

Ayni kunlarda Madina xalqaro anjumanda ishtirok etish uchun qizg'in tay-

yorgarlik ko'rmoqda.

Uning «Baxt», «Me'moriy obidalar va ular haqidagi rivoyatlar», «Ma'naviyat xazinasi» nomli kitoblari o'z o'quvchilarini topgan.

– «Ma'naviyat xazinasi»da darslarda rivoyatlardan foydalanish usullari haqida fikr yuritiladi. Bugungi kunda amaliy san'atdagi ramziylikka oid tushunchalarni o'rganish oldimga qo'ygan maqsadlarimdan yana biri hisoblanadi, – deydi Madina yangi chop etilgan kitobi haqida so'raganimizda. – Buning uchun Arofot Tojixo'jayeva, Surayyo Yo'lchiyeva, Saidolim Saidov kabi ustozlarimdan behad minnatdorman.

XAZINASI»

Akobir NOSIRXO'JAYEV



Madina Po'latova Toshkent islom universiteti qoshidagi akademik litsey talabasi.

TILIM MANIM - ELIM MANIM

Bisga har kuni mamlakatimizning turli go'shalaridan maktublar, xabar, lavha va maqolalar kolib turadi. Quyidagi fikrlar ham bisni bee'tibor qoldirmadi. O'ylaymizki, maqolani o'qib, sizda ham yangi fikr va niyatlar tug'iladi.

Til insonga berilgan tengsiz, bebaho mo'jiza, dunyoning jamiki ulug' insonlari bu xususda juda purma'no fikrlar bildirib, o'z ona tillarini saqlashni Vatanni himoya qilish darajasida tushunganlar, chunki dunyoni sevish, tug'ilgan yurtga hurmat, oilaga sadoqat, ota-onaning qadriga yetish, avvalo, ona tilini avaylab-asrashdan boshlanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Gapimiz quruq bo'lmashligi uchun takror tilga olib bo'lsa-da, tilni sevish – Vatanni sevish bilan barobar, degan fikrimizni davom ettirib, mulohaza qilib ko'rsak, haqiqatan ham, xoh Alisher Navoiy bobomizning, xoh fransuz yozuvchisi Fransua Rable, italiyalik Aligeri Dante, rus tarixchisi Nikolay Mixaylovich Karamzin va boshqa o'nlab yozuvchilar o'z ona tillarining softligi, boyligi, yashashi uchun kurash olib borganlar. Masalan, Fransua Rable o'z ona tillarini mensimagan zodagonlarni qattiq hajv ostiga olgan bo'lsa, N. Karamzin: «Bizning zodagonlar rus bilan ruscha gaplashmasdan, nuqul buzub, fransuz tilida so'zlashishadi... Uyat emasmi?!» Bizda ham shunday kimsalar yo'q emas. Bugun aytilyotganidek, boshqa tillarni o'rganish o'z ona tilimiz hisobiga bo'lmashligi, aksincha, ona tilini chuqurroq o'rganish hisobiga boshqa tillarni sevishimiz kerak. Ertaga bitisi chiqib, «Qani, ona tilingda falon so'z qanday aytiladi?» deb so'rasa, uyaliq qolmasligimiz kerak.

Dunyoda besh mingdan ortiq til bor, deyishadi. Xo'sh, nima uchun tillar buncha ko'p? Shu to'g'rida sira bosh qotirib ko'rganmisiz? Albatta, dunyoda yolg'iz bitta til bilan uzoqqa borib bo'lmaydi, bu borada so'zlashuv jarayoni emas, aksincha, tillarning boyish

nisbatini inobatga olish kerak, ya'ni tillar qancha ko'p bo'lsa, har bir xalqning so'z boyligi ham shunchalik darajada o'sib boradi.

Keyingi yigirma yil davomida tilimizga juda ko'p so'zlar kirib keldi va bizdan ham jahon tillariga yangi so'zlar kirib bordi. Bular orasida jahon xalqlari o'zbeklar, O'zbekiston so'zlarini qiziqish bilan qarshi oldilar. «Kurash» so'zimiz ham jahon uzra yangradi. Hozirda dunyoning turli sport maydonlarida yangrayotgan «halol», «chala», «yonbosh» so'zlarini eshuganimizda, o'zimiz ham g'ururlanib ketamiz.

Tilimiz nihoyatda boy ekanligini yaxshi bilamiz. Yurtimizga kelgan sayyohlar bu tilning jozibadorligini ko'rib, hayratda qoladilar. Nimaga shunday? Buning sababi shuki, hozirgi o'zbek tili kechagina paydo bo'lgan til emas, uning ildizlari qadimga borib taqaladi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadig'u bilig» asari, «Alpomish» dostoni, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari so'zimizning yorqin misolidir. Yana bir narsaga diqqatingizni tortsak: «Alp Er To'ng'a» dostoni hali atroflicha o'rganilgani yo'q. Ma'lumki, moskvalik sharqshunos olim I.Stebleva «Devonu lug'otit turk» asarida keltirilgan 348 satr she'rni terib olib, ularni ming yillar davomida yo'qolib ketgan dostonning uzviy qismlari ekanligini aytgan.

Alp Er To'ng'a kim edi?

U miloddan oldingi VII asrda yashagan hukmdor. O'zgalar uni Afrosiyob deb atashgan.

Mazkur doston haqida ilmiy izlanish olib borish, uni yanada chuqurroq o'rganish zarur, deb o'ylaymiz, chunki mazkur doston orqali eng qadimi yangi so'zlarimizni o'rganishimiz, ayniqsa, siz aziz o'smirlarga foydasi katta.

Alisher Navoiy bobomiz otlarning bir necha turlarini yoshlariga va zotiga qarab ifodalab berganlar: «qulun, g'o'non, do'non, to'lan, to'buchoq, arg'umoq, yaka, yobu». Mana, ko'rdingizmi, ona tili darslarida o'zingiz ham ustozlaringiz bilan birga mazkur so'zlarning har biri haqida tadqiqot olib borishingiz, bayon, insholar yozib, so'z boyligingizni oshirishingiz mumkin. Mabodo, shunday yaxshi fikr tug'lsa, gazeta orqali bizga fikrlaringizni yozib yuboring, yana fikrlashamiz.

Lobar MARDONOVA,

Hanifa PANJIYEVA,

Surxondaryo viloyati, Termiz shahri



Dam olish kuni edi.

*Nonushtadan keyin uyda bir o'zim
goldim. Ikki kundan beri zavqini yo'qotgim
kelmayotgan kitobimni qo'limga olib o'qishda
davom etdim. Menda qiziq odat bor: agar
kitob ko'nglimga o'tirib qolsa, uni o'qib
tugatmaguncha qo'lmdan
qo'ymayman.*

Ammo bu gal odatimga xilof ish qildim. Qanchalik qiziqarli bo'lmasin, bir necha sahifa o'qib bo'lgach, kitobni javonga olib qo'ydim. Chunki uning tugab qolishidan cho'chiyotgan edim. Biroz chalg'ish uchun televizorni yoqdim. «Olamga sayohat» ko'rsatuvi berilayotgan ekan, ekrandan ko'zimni ololmay goldim.

Afrikaning cho'l hududlaridan birida istiqomat qiluvchi odamlar haqida qiziqarli hikoya qilindirdi. Har qadamda uchrab turuvchi tabiat inijliklariga ro'baro' odamlar hayoti, ularning o'z Vatani muhabbati kishini hayratga soladi. Ayniqsa, 12 yashar Rizo degan bolaning kundalik yumushlari tasvirlangan lavhalar juda ta'sirli edi. Ota-onasining yaqin ko'makchisiga aylangan bolakay serg'ayratligi bilan urug'doshlarining og'ziga tushgan. Mol-hol, ukalariga qarashdan tashqari yarim kunlik yo'lda joylashgan buloqdan ichimlik suvi olib kelib, oilani ta'minlash ham

uning zimmasida ekan. Rizo kunora kattalarga ergashib, eshagiga meshlarni ortib, yo'lga chiqadi. Kichik karvon qum-barxanlaridan oshib, buloq bo'yiga yetib keladi. Meshlarni to'ldirib, yaqin atrofdagi qishloqchadan boshqa bozorlarini ham qilib, ortga qaytishadi. Issiq cho'ldagi qaynoq qum odamning betiga chippa yopishadi. Yurishini qiyinlashtiradi. Ammo yaqinlari uchun suv olib ketayotgan

Rizoning kayfiyatiga bu narsa ta'sir qilmaydi. Goh eshagiga minadi, goh piyoda, yuzida hamisha tabassum. Ota-onasining yukini yengil qilishga urinayotgan bolakay menga yoqib

shohbekati bor. O'sha yerdagi gulzor chetida o'rnatilgan vodoprovod jo'mragidan bekorga oqib yotgan top-toza ichimlik suvini ko'rib, ko'p qavatli uylar yo'lagida qo'sha-qo'sha gilamlarni yuvayotgan kelinlarni, mashinasini sharillatib yuvayotgan akalarni ko'rganda, ranjib ketyapman. Lekin odamda biroz istak, g'ayrat bo'lsa, har qanday qo'rquvni yenga olarkan. Faqat befarq bo'lmaslik kerak ekan. Men ishni shoh bekatdagi vodoprovod jo'mragini har o'tganimda erinmay yopib qo'yishdan boshladim. Avvaliga bu ko'pchilikka erish tuyuldi. Bora-bora ko'nishdirdi. Hozir esa u yerda suvning behuda oqib yotganini ko'rmasiz.

Suv – aziz ne'mat. Uni behuda isrof qilmaylik. U bitmas-tuganmas emas. Bir tomchisini ham isrof qilmaslikka harakat qiling. Avvaliga bu hol o'zingizga, boshqalarga ham g'alati tuyulishi mumkin.

Lekin siz shaxtingizdan qaytmang. Agar do'stlaringiz,

yaqinlaringiz sizdan o'rnak olishsa, yanayam yaxshi! Siz ezgu ishni boshlab bergan bo'lasiz.

Yusuf FAYZULLO


SUV IZLAGAN BOLAKAY

qolgandi. Hatto kun peshinga yetganini ham sezmay qolibman.

Ko'rsatuvi tugagach, oshxonaga chiqdim. Choy qo'ymoqchi bo'lib jo'mrakni burasam, suv yo'q. Nega-dir qo'rqib ketdim. Shoshib issiq suvni ochdim. Unisiyam yo'q. Ko'p qavatli uyda bu hol qiziq bo'lar ekan. Yugurib qo'shnilarinikiga chiqdim. Ularning xabari bor ekan, ta'mirlash ishlari bois anchagacha suv bo'lmas ekan. Kechgacha yorilib ketay dedim. Nima qilishingni bilmaysan kishi. Nazarimda, suv umuman kelmaydigan o'xshardi...

Aziz o'quvchi! Sizni zeriktirib qo'ymadimmi? Shunga qaramay yana biroz meni tinglashingizni so'zardim. Shu kunlarda men qo'rqoq bo'lib goldim. Kap-katta odam nimadan qo'rqadi, deya hayron bo'layotgandirsiz?!

Uyimiz oldida avtobuslarning



MUSTAQILLIK
MAYDONI

Yurtimning yuragi yagona, aziz,
Bunda yarqiraydi tiniq marmar tosh.
Qadam qo'yan sari qallda o'tli his,
Tarix kitobiga bo'lamiz sirdosh.

Mag'rur hilpiraydi bayroq ulug'vor,
Esayotir tongdan shamollar mayin.
Ona zamin bo'yab yorqin, betakror,
O'zbekiston nomi yangrar kun sayin.

Haykallar sukutda, haykallar vazmin,
Xotira olovi turar lovullab.
Poyida ehtrom gullari gulgun,
Daraxtlar ta'zimda, ta'zimda yosh qalb.

Buyuk ajdodlarning orzusi bo'lib,
Quyoshli tong sari qadam sur durkun.
Barkamol avlodim, g'ururga to'lib,
Muqaddas maydondan o'tib tur har kun!

Oygul SUYUNDIQOVA

MEHRIBONSIZ

Sizni ko'rib suyundi dilim,
Bilim uchun chog'landi yurak.
Siz berdingiz behisob ilm,
U hayotda bizlarga kerak.

Ruchka, daftar tutqazib goho,
O'rgatdingiz ona so'zini.
Yaxshilikka qilib iltijo,
Ko'rsatdingiz haqning yuzini.

Jaranglaydi quvnoq so'zingiz,
Mushtoq boqsak izlaringizga.
Mehribonsiz mudom o'zingiz,
Dono o'g'il-qizlaringizga.

Sanobar BARATOVA,
Sariosiyo tumani,
Dashnobod qishlog'i

TILAK

Bag'ringda kezib chaman,
Baxtingni ko'rsam deyman.
Senga sodiq o'g'il-qiz,
Bir farzand bo'lsam deyman.

Yurtim, senga tilagim,
Toleing baland bo'lsin.
Ajdodlar ruhi mudom,
Tinchingni qo'llab tursin.

Abadiysan, Vatanim,
Kelajaging butundir.
Yoshlar sening iqboling,
Salobatli ustundir.

Mavluda ESHMIRZAYEVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo
tumanidagi 19-umumta'lim
maktabining 9-«G» sinf o'quvchisi

YOMG'IR
TILI

Shamolni tilini topolsam edi,
Va yodlab olsaydim yomg'ir tilini.
Munavvar tonglarda to'kkan ko'z yoshim,
Maysaning bag'riga qolsa to'kilib.

Qishloqqa, onamning yoniga borsam,
Sog'inchlar gupurib yotgan qalb bilan.
Xayolim bir uchqur otga aylansa,
Masofa bo'lmasa sharq-u g'arb bilan.

Shunday o'ylar ekan sog'inchan odam,
Ming xayol bo'larkan yongan dilida.
Onajon, men bir kun qishloqqa qaytib,
Sog'inchim aytaman yomg'ir tilida.

Oyxon
ERKINJONOVA,
Namangan viloyati,
Yangiqo'rg'on
tumanidagi
10-maktabning 7-sinf
o'quvchisi



(Masal)

(Otam hikmatidan)

Keng yaylov, ko'klam bog'da
Bolalar o'ynashardi.
Charchasalar, dam olib,
Ertaklar so'ylashardi.

Shu joyda o'tlab yurgan,
Eshak, echki ko'rdilar.
Qaysi biri afzal deb,
Bolalar bahs qurdilar.

So'z olib Oyshaxon der,
Menga echkidir afzal.
Sut berar kosa-kosa,
Onam sog'adir har gal.

Yana buvim mo'yidan,
To'qib berarlar paypoq.
Qishda issiq yuraman,
Bilsanglar, ana shundoq.

Pahlaviy der bobomda,
Bordir shundayin eshak.
Charchoq nima? Bilmaydi,
Hammollik qilar beshak.

Tog' -u toshlar pisandmas,
Elitar etmay minnat.
Qiymatin taqqoslasam,
Echkidan eshak qimmat.

Tortishuv bordi chunon,
Chiqib har qaysi so'zdan.
Endi dono so'z eshting,
Momoxon degan qizdan.

Bolalar, siz haqdirsiz,
So'zlaring to'g'ri mutlaq.

Barchaga ibrat uchun,
Toping, aytay topishmoq.

Eshakda bordir yag'ir,
Echkada esa qo'tir.
Majoziy tomonidan,
Qay biri ustun gapir?

Bolalar sukut ichra,
Xayolga cho'mib ketdi.
Jumboqning yechimini,
Momoxon sharhlab o'tdi.

Eshak halol xizmatdan,
Yag'ir oldi ko'chkiga.
Duch kelganga suykilib,
Qo'tir toshdi echkiga.

Yag'ir, ijobiy ma'no,
Mehnatning sharofati.
Qo'tir, laganbardorlik,
Ham surbetlik illati.

Xulosa: shu bolalar,
Mehnatdan kular iqbol.
Laganbardorlik uning,
G'ururni etar paymol.

Bolalar qoyil qolib,
Tasdig'iga yetdilar.
Momoxonga tan berib,
Uylariga ketdilar.

Naziriy o'g'il-qizga
Der: do'st tuting kitobni.
O'qib, aqni qayrang,
Vaqt ko'rsatar hisobni.

A'zam NAZIRIY

Mansur IN'OM

AYIQ BILAN OLI SHUV

Tajribali cho'pon Olimjon
aka bilan suhbatlashgan odam
sira zerikmaydi. Har gal yangi-
yangi hikoyalardan mazza
qilardi. Menga ham ko'p vo-
qealarni aytib berganlar. Ayiq
haqidagisini siz ham eshitib
ko'ring.

Har yili bahorda «Betagalik»
yaylovlariga qo'y-echkilarimiz-
ni haydab boramiz. O'tgan yili
esa «Ingichkasoy»ga o'tov qur-
dik. Shunday soyni bo'yiga joy-
lashdik. Tip-tiniq suv sharqirab

oqib yotardi. Uning qirg'oq-
laridagi erib bitmagan qorlar
suvga aylanib, irmoq-irmoq
bo'lib soyga qo'shildirdi. Bepo-
yon qirlar ko'm-ko'k, odam-
ning havasi kelardi. Echki esa
maysadan boshini ko'tarmaydi.

Bir kun tog'ni aylanib yurib,
katta toshni tagiga
bostirib qo'yilgan
qo'yni ko'rib

qoldim. Avvaliga bechora tosh
dumalab tushib ostida qolibdi,
deb o'yladim. Lekin yaqin
atrofida qulab tushadigan tog'
xarsanglari yo'q edi. Ularni
qimirlatib boshqa joyga olishga
insonni kuchi yetmaydi.

Bu voqeani otamga ayt-
ganimda: – Ey, o'g'lim, sen
aytgan ishni faqat ayiq qilishi
mumkin. Endi hushyor bo'-
lishimizga to'g'ri keladi, –
dedilar. Men avvaliga hayron
bo'ldim.

Otam ayiq o'ljasini toshni
tagiga bostirib qo'yib, bir necha
kun o'tgach, hidlangandan
so'ng topib yeyishini aytib
berdilar. Men otamning gap-
lariga uncha ishonmadim.

Avgust oyining o'rtalari edi.
Uyimizga qo'ni-qo'shnilar
yig'ilishdi. Tog'dagi cho'ponlar

bir-birlariga juda mehribon
bo'lishadi. Har birimizning
o'tovimiz 20-30 chaqirim
uzoqlikda joylashgan. Mehmon-
larni kuzatib kelganimda, vaqt
ham allamahol bo'lib qolgandi.
O'mimga cho'zildim-u, negadir
uyqim kelmadi. Tashqarida
itlarni akillashi kuchaydi,
shoshilib turib, qo'raga qarab
yurdim. Shunda echkilarni ikki
tomonga ajralganini ko'rdim.
Bir ulkan odam ularning
o'rtasida tikka turardi. Unga
yaqinlashdim. U ovozimni
boricha hay-haylashimdan
ushlab turgan echkini ulotirib
cho'nqaydi. Shundagina uni
ayiq ekanligini sezdim. Qancha
baqir-chaqir qilmayin, uning
parvosiga kelmasdi.

Keksalar ayiq haqida gap
ketganda, «Ayiq faqat olovdan

qo'rqadi», deyishgandi. Bu
yodimga tushishi bilan
orqamga o'tovga qaytdim.
Shoshilib qo'limga ilashgan
ko'rpachani oldim-da, idishda
turgan yoqilg'iga botirib,
qo'raga qarab chopdim.
Qarasam, echki, qo'ylar yo'q.
Ayiq haydab olib ketib qolibdi.
Orqasidan quvib yetdim. Dar-
rov mash'alani yoqib, baland
ko'tardim. Buni ko'rgan ayiq
echki va qo'ylarni tashlab,
menga qarab bir bo'kirdi-yu,
qirga lapanglab chiqib ketdi.
Ungacha uydagilar ham or-
qamdan yetib kelishdi. Chorva
mollarini qaytarib, joyini
o'zgartirishga majbur bo'ldik.
Chunki qo'raga o'rgangan ayiq
kelib, yana tinchlik bermasligi
mumkin edi.

Men tajribali cho'pon
Olimjon Oqilovning hikoyasini
tinglarkanman, jonzotlarga ozor
bermasangiz, ular ham sizga
aslo qasd qilmasliklarini bilib
oldim.



(Hodisa)

Sahifani D.HOTAMOVA tayyorladi

Odatda, 1-2-3-o'rin g'oliblarning shohsupasi deyiladi. Bu o'rinlarni band etishning o'zi bo'lmaydi. Ammo hamyurtimiz Ravshan Ermatov 2010-yilning eng yaxshi hakamlar reytingida 128 ochko to'plab, dunyoning ikkinchi hakami deya e'tirof etildi.

Bu o'usho'abar bolajonlarimizni ham o'kursand etganligini rad etolmaymiz. Negaki, sinf o'cnalarimizda, uyingizda, hattoki do'stingiz bilan suhbatigizda ham bundan fao'rlanib yurganingizning guvohi bo'ldik.

Akmal MALLABOYEV, Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi 9-maktabning 7-sinf o'quvchisi, maktab futbol jamoasining a'zosi:

Ravshan Ermatovga, menimcha, birgina havasning o'zi bo'lmaydi. Unga faxr, iftixor, g'urur degan so'zlar doimo ergashib keladi. Dunyo tan olgan hakam ishtirok etgan uchrashuvda baribir qatnashishni har kuni orzu qilaman. Niyatim, kuchli futbolchi bo'lish.

Yusuf SHO'IMOV, «Paxtakor – 98» futbol akademiyasi tarbiyalanuvchisi:

Qarshining «Nasaf» jamoasidagi tengdoshlarimiz bilan o'tgan uchrashuv juda maroqli o'tdi. Final uchrashuvimizni FIFA referisi Ravshan aka Ermatov boshqardi. O'yin oldidan har birimiz bilan erinmay alohida qo'l berib salomlashib chiqdilar va omad tiladilar.

DUNYONING IKKINCHI

Darvoqe, Qatar poytaxti Doha shahrida futbol bo'yicha davom etayotgan Osiyo kubogi bahslarining final uchrashuvini ham Ravshan ERMATOV boshqarishga asosiy da'vogar bo'lib turibdi.



HAKAMI KIM?

Uchinchi o'rin uchun bahsni esa yaponiyalik hakam Yichi NISHIMURA boshqarishi mumkin.

«adolat» so'zi yana tantana qildi. Chunki Ermatov adolat so'zi bilan dunyoga tanildi-da.

Muxlislar va mutaxassislar nazariga tushgan Ravshan akangizning yutug'i nimada ekanligini bilasizmi?

Albatta, kamtarlik, mehnatsevarlik va intilishda.

Har bir o'quv yurtlarida o'quvchilar bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishlari uchun turli sport to'garaklari muntazam ishlab turibdi. Quvonarlisi, bu to'garaklar ishi o'z yutuqlari bilan ajrab turibdi. Jumladan, bizning 1-Respublika tibbiyot kollejimizda ham sportning sakkiz turi bo'yicha to'garaklar tashkil etilgan.



KOLLEJIMIZ



HAYOTI

O'tgan yili esa badiiy gimnastika to'garagi ish boshladi. 2001-2003-yillar orasida kollejimizning voleybolchi qizlar terma jamoasi faxrli 1-o'rinni qo'ldan boy berishmagan. Sobiq talabalardan Nadejda Dusanovaning 2010-yil Osiyo o'yinlarida yengil atletika bo'yicha kumush medal bilan taqdirlanganidan qanchalar faxrlangandik. Bugungi kunda Nadejdaning izdoshlaridan Dilnoza Boqiyeva, Ma'rifat Hasanova, Feruza Ismoilova kabi sportchi qizlarimizdan umidimiz katta.

Albatta, Nadejdaning bunday yutuqlarga erishishi o'z-o'zidan bo'lgan emas. Bizning kollejimizda o'qib yurgan chog'larida, u respublika musobaqalarida qatnashib tanilgandi. Endilikda kollejimiz talabalarining yutuqlaridan quvonchimiz cheksiz.

Shuhrat AVLAQULOV,
1-Respublika tibbiyot kolleji jismoniy tarbiya o'qituvchisi,
Qamara JAYLOBOVA,
kollejning davolash bo'limining 1-bosqich talabasi

MENGA DO'STINGNI AYT!

Shayxontohur tumanidagi 132-maktabda iste'fodagi podpolkovnik Naim aka Saidovning tashrifidan jaji bolajonlar qalbi bir olam taassurotlarga to'ldi. O'z o'rnida mehmon ham bolakaylarning puxta tayyorgarligi va ularning harbiy qo'shiqlari va harbiycha yashashga intilishlaridan quvondi. Vatanga muhabbat, do'stga sadoqat, kasbga hurmat bilan yondashishni maktab partasidanoq o'rganayotgan bolajonlarga kim ham havas qilmaydi deysiz?

Sarvinoz YOQUBJONOVA,
9-«V» sinf o'quvchisi



Sahifani Ma'mura MADRAHIMOVA,
Gulruxsor XUDOYBERDIYEVA tayyorlashdi

O'ZINGNI SINAB KO'R!

1. «Uch havozali «Ohu» kemasi Janubiy okeanga jo'nab ketmoqda edi».

Bu qaysi mashhur kitobning boshlanish so'zlari?

- a) «Gulliver tiliputlar mamlakatida»;
- b) «G'aroyib sayohatlar»;
- d) «Gulliverning sayohatlari».



2. «G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish, El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish».

Mashhur to'rtlikning kimga tegishli ekanini bilasiz. Ikkinchi misradagi «shafiqu» so'zi qanday ma'noni bildiradi? O'ylab ko'rmagan bo'lsangiz, ana endi izlaning, ma'nosini bilsangiz, o'zingizga foyda!

3. Hozirda dunyoning qariyb 50 mamlakatida temurshunos olimlar faoliyat ko'rsatishmoqda. O'tgan 600 yil mobaynida Amir Temurga bag'ishlab yaratilgan asarlar soni Yevropa tillarida 500 dan ziyod, Sharq tillarida esa mingdan oshiq. Sanab ko'ringchi, mamlakatimizda Amir Temur bobomizga atab yaratilgan nechta asarni bilasiz?

4. Milodiy 870-yilda mumtoz bir siymo - Imom Buxoriy vafot etdi. Shu yili Imom Moturidiy dunyoga keldi. Bu alloma haqida nimalarni bilasiz? Bu zotning tariximiz oldidagi xizmatlari nimalardan iborat bo'lgan?

O'qishga qabul qilish hay'ati a'zolari qizning musiqa eshitish qobiliyatini tekshirish asnosida uning ritm, tempi yaxshi sezish, notalar past-balandligini aniqlashda bitta ham xatoga yo'l qo'ymaganligiga guvoh bo'lishdi. - Folklor sinfiga qabul qilaylik, - dedi o'qituvchilardan biri. - G'ijjak sinfiga o'qitaylik, Qo'ng'irotdan ham bitta g'ijjakchi qiz chiqsin, - dedi B.Qidirboyev.

Shunday qilib, Gulrux folklor bo'limining g'ijjak sinfiga o'qishga qabul qilindi.

«Axir bu qiz bola bo'lsa... Odatda g'ijjak chalish o'g'il bolalar ishi emasmi?... Qiz bolaning g'ijjak tutishi... qanday bo'larkin?...» Oypara opa dilidan shunday o'ylar kechirgan bo'lsa ham, tiliga chiqarib, birovga aytmedi.

Musiqa va san'at maktabida Gulrux ustози Baxtiyor Qidirboyevdan saboq ola boshladi. Romans, menuet, kompozitsiya singari g'arib kompozitorlari Bax, Betxoven,

2005-yili Respublikada o'tkazilgan bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilarining M.Qori-Yoqubov nomli tanlovida qatnashib, faxrli I-o'rinni egalladi.

Maktabni muvaffaqiyatli tugatgan Gulrux 2008-yili Nukus madaniyat va san'at kollejiga o'qishga kirdi.

Quvonarlisi, 2008-yil fevralda o'tkazilgan M.Qori-Yoqubov nomidagi respublika tanlovida Gulrux yuqori o'rinlarni egalashga musharraf bo'ldi. So'nggi so'z... ezgu niyat... «Niyating - yo'ldoshing bo'lsin», deyдилar. Senga omad yor bo'lsin, Gulrux!

Nazli XOLMURATOVA,
Qo'ng'irotdan tumanidagi O'quvchilar ijodiyot to'garagi rahbari

G'IJJAKCHI QIZ

Qo'ng'irotdagi 53-maktab o'quvchisi Gulrux o'tkir zehni bilan tengdoshlaridan farqlanardi. Undagi tug'ma iste'dod va qobiliyatni sezgan onasi uni Yesemurot Jirov nomidagi I-sonli bolalar musiqa va san'at maktabiga yetaklab keldi.

Vivaldi asarlarini tingladi. O'zbek, qoraqalpoq bastakorlarining hayoti va ijodi bilan, shuningdek, qoraqalpoq baxshilari Musa, Eshan, Nura-bullo va Qurbonboy ijro qilgan dostonlardagi qo'shiqlar, kuylar bilan tanishdi.

YAXSHINI MINGGA TATIR

Bir kishi bog'da kezib yurardi. Oddiy daraxt bargiga ko'zi tushdi. Oldi. Undan xushbo'y is taralardi.

- Sen nimasan, ey yaproq? - dedi u, - gulmisan, anbarmisan? Muncha hiding yoqimli? Yaproqdan sado keldi:

- Men oddiy terak bargiman. Bir necha muddat gulirayonlar orasida yotdim. Shu-shu ularning mushki anbari menga urib, gulsifat bo'libman.

Hissa: gul qavmiga yovuq bo'lgan yaproqdan gul isi kelgay va aksincha, achchiq alaf yonida qolgan guldand sassiq bo'y kelsa, ne ajab?!

S.QARNOQLI

O'ZINGDAN CHIQQAN YOV

Mirzaterakni yiqitdilar. Uning terisini shilib, tanasidan pona yasadilar. Bu pona bilan terakning gavdasini ikki bo'lakka bo'la boshladilar. Terak mungli g'ichirlab nola qildi:

- Men boltadan xafa emasman. Uning ishi chopmoq, kesmoq. Men ichimdan chiqqan ponadan xafaman. O'zingdan chiqqan yov yomon deb shuni aytishar ekan-da, endi bildim.

YAXSHI

XO'ROZ QANDAY ATALADI?

Jamoliddin do'stidan so'radi:
- Xo'roz inglizchada qanday ataladi?

- Bilmadim.
- Ruschasichi?

- «Kuritsa» bo'lsa kerak.
- Eh seni, - dedi u do'stiga va yaqinda sotib olgan rangli rasmlari «Uy jonivorlari» degan kitobchani ko'rsatdi.

KITOBLAR BOR!



UY JONIVORLARI
ДОМАШНИЕ ЖИВОТНЫЕ
DOMESTIC ANIMALS

KUCHUK
СОБАКА
DOG

OT
ЛОШАДЬ
HORSE

NASHRIYOT TUHFASI

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi nashrdan chiqargan bu kitobchada echki, qo'y, kuchuk, g'oz, kurka, tovuq, mushuk, sigir, ot singari 13 ta uy jonivorlarining rangli rasmlari bilan bir qatorda, ularning nomlari o'zbekcha, ruscha va inglizcha berilgan. Bu kitobchani qo'lga olgan har bir o'quvchi o'zi va oilasidagi barcha uka-singillarini ana shu uy jonivorlari bilan uch tilda tanishtira oladi.

Nargiza RAZZOQOVA



XO'ROZ
ПЕТУХ
COCK

MUSHUK
КОШКА
CAT

O'RDAK
УТКА
DUCK



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin OROPOV
Navbatchilar:
Ma'mura MADRAHIMOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari).
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08

Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 67453
Buyurtma N: J 1010